

Samarqand viloyatida xizmatlar sohasi hamda sohaning rivojlanish tendensiyasi to‘g‘risida ma’lumot

Assalomu alaykum hurmatli matbuot anjumani ishtirokchilari!

Bugungi kun tartibidagi asosiy mavzu xizmatlar sohasi va bu sohadagi hukumatimiz tomonidan olib borilayotgan islohatlar, shuningdek, 2021- yilning yanvar-dekabr oylarida Samarqand viloyati bo‘yicha ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi, o‘sish sur’atlari to‘g‘risida qisqacha to‘xtalib o‘tmoqchiman.

Mustaqillikka erishilgan dastlabki yillardan boshlab, xizmat ko‘rsatish va servis sohalarini rivojlantirishga mamlakatimiz iqtisodiy salohiyatini yuksaltiruvchi muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida alohida e’tibor qaratilib kelinmoqda. Chunki, bozor iqtisodiyotini tarkibiy o‘zgartirish sharoitida eng asosiy masalalardan biri xizmatlar sohasini rivojlantirish, shuningdek, bu borada aholining ish bilan bandlik darajasini kengayib borishi hisoblanadi.

Xizmatlar o‘zi nima?

- **Xizmatlar deganda** - ishlab chiqarish faoliyatining foydali natijalari, ya’ni iste’molchilarning buyurtmasi bo‘yicha etiyojlarni qondirish, lekin moddiy ko‘rinishga ega bo‘lmagan faoliyat tushuniladi.
- **Xizmatning o‘ziga xos xususiyati bo‘lib-** xizmatni bajarish va uni iste’mol qilish davrining bir xil vaqtga to‘g‘ri kelishi hisoblanadi.
- **Ishlab chiqarilgan (ko‘rsatilgan) xizmatlar hajmi-** bu xizmatlar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan va xizmat ko‘rsatish asosiy faoliyat turi hisoblanmaydigan barcha xizmatlar ishlab chiqaruvchilari (yuridik va jismoniy shaxslar) tomonidan ko‘rsatilgan bozor xizmatlari qiymatidir.
- Ma’lum bir vaqt davomida ko‘rsatilgan xizmatlar qiymatini o‘lchovchi “Ishlab chiqarilgan (ko‘rsatilgan) xizmatlar hajmi” statistik ko‘rsatkichi, iste’molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslar, norezidentlarni qo‘sghan holda) ko‘rsatilgan xizmatlar qiymatini aks ettiradi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha xizmatlarning statistik hisobi quyidagilarga muvofiq yuritiladi:

- ❖ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 26- fevraldagisi 55-soni “2016-2020 yillarda xizmatlar sohasini rivojlantirish dasturi to‘g‘risida”gi qarori asosida O‘zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirish dasturi;
- ❖ O‘zstandart Agentligining 2015- yil 19- yanvardagi 05-612-soni qarori bilan tasdiqlangan, O‘zbekiston Respublikasi faoliyat turlari bo‘yicha mahsulotlarning (tovarlar, ishlar, xizmatlarning) statistik tasniflagichi (MST);
- ❖ O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining 2021- yil 28- sentyabrdagi 38-soni qarori bilan tasdiqlangan “Ishlab chiqarilgan (ko‘rsatilgan), shu jumladan qishloq joylarida ko‘rsatilgan xizmatlarning statistik hisobi bo‘yicha uslubiy nizom”.

Ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hisobining xususiyatlari

- ❖ Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar hajmida ko'rsatilgan xizmatlar uchun amaldagi bozor narxlari bo'yicha, qo'shilgan qiymat solig'i va aksizsiz, hisoblangan to'lovlardan hisobga olinadi.
- ❖ Iste'molchilar tomonidan xizmatlar uchun to'lovlardan naqd pul, shu jumladan plastik kartochkalar va pul o'tkazish, elektron to'lovlardan va elektron pullar orqali amalga oshirilishi mumkin.
- ❖ Norezidentlarga ko'rsatilgan xizmatlar (agar to'lov so'mda amalga oshirilmagan bo'lsa), xizmatlarga to'lovlarni amalga oshirish sanasida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan so'mning belgilangan kursi bo'yicha qayta hisoblangan, shartnomaga narxlari bo'yicha aniqlanadi.

Xizmatlar sohasining kengayishi va rivojlanishi, milliy daromadlarning oshishini ta'minlovchi hamda aholi uchun munosib turmush darajasini ta'minlashning hal qiluvchi omilidir. Xizmatlarning yuqori sifati va xilma-xilligi, xodimlarning mehnat samaradorligini oshiradi, iste'mol xarajatlarini kamaytiradi, vaqtini tejalishiga olib keladi hamda bo'sh vaqt samaradorligini oshiradi.

Xizmatlar sohasining kengayishi va rivojlanishi, milliy daromadlarning oshishini ta'minlovchi hamda aholi uchun munosib turmush darajasini ta'minlashning hal qiluvchi omilidir. Xizmatlarning yuqori sifati va xilma-xilligi, xodimlarning mehnat samaradorligini oshiradi, iste'mol xarajatlarini kamaytiradi, vaqtini tejalishiga olib keladi hamda bo'sh vaqt samaradorligini oshiradi.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021- yil yanvar-dekabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 18 656,7 mlrd. so'mga yetdi. Uning nominal hajmi 4 570,6 mlrd. so'mga oshdi. Taqqoslama ekvivalentda o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 121,6 % ni tashkil etdi.

Transport sohasida ko'rsatilgan bozor xizmatlari, xizmatlarning umumiyligi ulushi – 25,1 foizini tashkil etadi. Transport xizmatlarining eng katta ulushi avtomobil transportida yuk va yo'lovchilarni tashish bo'yicha xizmatlarga to'g'ri keladi. Transportning ushbu turi boshqa transport turlari bilan taqqoslanganda uning moslashuvchanligi va ko'rsatilayotgan xizmatlarning nisbatan arzonligi sababli eng ko'p talabga ega hisoblanadi.

Savdo bu – tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini zarur iste'molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo'linadi. 2021- yil yanvar-dekabr oylarida, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiyligi hajmida savdo xizmatlarning ulushi 27,6 foizni tashkil etdi, bu esa 5 155,1 mlrd. so'mga to'g'ri keldi. 2021- yil yanvar-dekabr oylarida chakana savdo xizmatlari ulushi, umumiyligi savdo xizmatlari hajmining to'rtdan uch qismini, aniqrog'i 75,8 foizini tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlar hajmi moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlardan miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi. 2021- yil yanvar-dekabr oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi 2 615,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, AKT rivojlanishi mamlakatning raqobatbardoshlik darajasiga bevosita ta'sir qiladi, sizga katta hajmdagi ma'lumotlarni to'plash va umumlashtirishga imkon beradi, strategik darajada boshqaruv uchun katta imkoniyatlar ochadi.

2021- yil yanvar-dekabr oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi 833,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, bilimlar va xizmatlar iqtisodiyotini shakllantirishning eng muhim sharti kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashning rivojlangan tizimi hisoblanadi. Amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida mamlakatga turli sohalarda yuqori malakali mutaxassislar kerak. Yuqori malakali kadrlar innovatsion iqtisodiyotning harakatlantiruvchi kuchi bo'ladi.

2021- yil yanvar-dekabr oylarida ta’lim sohasidagi xizmatlar hajmi 1 002,5 mlrd. so‘mga yetib, bozor xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi 5,4 foizni tashkil etdi. 2020-yilga nisbatan o‘sish sur’ati 134,3 foizni tashkil etdi.

Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta’minalash bo‘yicha ko‘rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o‘z ichiga oladi. 2020- yilga nisbatan yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar hajmi 137,2 mlrd. (o‘tgan yilga nisbatan 118,5 %) so‘mga ortdi.

Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta’minalash bo‘yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo‘yicha qo‘yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va gayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o‘z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

Yashash va ovqatlanish xizmatlari ichida **oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta’minalash** bo‘yicha xizmatlarning ulushi 93,6 % ni tashkil etgan.

Sog‘lijni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu – sog‘lijni saqlash muassasalarining tibbiy va sanitariya xizmatlari, shuningdek, tashkilotlar va tibbiyot korxonalari, stomatologiya, fizioterapevtik, gomeopatik poliklinikalar, kosmetologiya klinikalari, giyohvand moddalarni iste’mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya va sanitariya epidemiologiyalar tomonidan ko‘rsatilgan bozor xizmatlarining qiymatidir.

2020- yilga nisbatan sog‘lijni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi 136,1 mlrd. (o‘tgan yilga nisbatan 140,0 %) so‘mga oshgan.

2021- yil yanvar-dekabr oylarida **aholi jon boshiga** ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 4 676,4 ming so‘mga yetib, 2020- yilga nisbatan o‘sish sur’ati 119,2 foizni tashkil etmoqda.

Xizmatlar sohasini jadal rivojlantirmasdan turib, respublikamizning iqtisodiy taraqqiyotini tasavvur qilish qiyin. Shuning uchun 2017–2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida ham xizmat ko‘rsatish sohasini jadal rivojlantirish, yalpi ichki mahsulotni shakllantirishda xizmatlarning o‘rni va ulushini oshirish, ko‘rsatilayotgan xizmatlar tarkibini, eng avvalo, ularning zamonaviy yuqori texnologik turlari hisobiga tubdan o‘zgartirish masalasiga alohida e’tibor berilgan.

2021- yil 11- mayda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5113 sonli qarori qabul qilindi. Qarorda “Iqtisodiy o‘sishni ta’minalashda xizmatlar sohasini muhim drayverga aylantirish va 2023 yilga qadar xizmatlar hajmini ikki baravarga oshirish” va shunga o‘xhash bir qancha masalalarga alohida to‘xtolib o‘tilgan.

Shuningdek, qarorning 4 bandida 2021- yil 1- iyuldan boshlab respublika hududlarida quyidagilarni nazarda tutuvchi xizmatlar sohasining rivojlanganligi reytingi joriy etiladi;

-xizmat ko‘rsatuvchi, shu jumladan yangi tashkil etilgan sub’ektlar soni, xizmatlar hajmi va turlari, yaratilgan ish o‘rinlari, soliq bazasi va boshqa muhim ko‘rsatkichlar asosida tegishli sohalarga mas’ul bo‘lgan davlat organlari va tashkilotlari, ularning hududiy bo‘linmalari rahbarlari va boshqaruv xodimlari, shuningdek, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi raisi, viloyatlar, Toshkent shahar, tuman (shahar)lar hokimlari va ularning o‘rinbosarlari faoliyati baholanadi.

E’tiborlaringiz uchun katta rahmat.